

FRANSUZCHA ZONIM KOMPLEMENTLI METEOROLOGIYAGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR XUSUSIDA

Muqumov T.B.¹*Annotatsiya:*

Hammaga ma'lumki, biror bir tilda erkin aloqaga kirish, ravon gapira olish, shuningdek, ushbu tildagi barcha ma'nolarni tushunish uchun tilning boshqa birliklari singari frazeologik birliklarni ham o'rganish muhim omil sanaladi. Vaholanki, millatning milliyligi, madaniyati so'zlar va frazemalar orqali tilda aks etadi. Bugungi kunda tilshunoslikning frazeologiya bo'limi ham boshqa bo'limlar singari har tomonlama tadqiqotchilar tomonidan qizg'in o'rganilmoqda. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligida frazeologizmlarning ahamiyati tadqiqotchilar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Frazemalar, frazeologiya, zoonimlar, erkin aloqa, lingvistik.

Tilshunoslikning onomastika bo'limida zoonimlar deb hayvonlarning nomlari bilan bog'liq bo'lgan leksik birliklarga aytiladi. Bu atama yunon tilidan kelib chiqqan: zoon (hayvon) va onyma (ism, nom) so'zlaridan hosil qilingan. Zoonimlar hayvonlarning biologik yoki madaniy jihatdan berilgan nomlarini o'z ichiga oladi.

Tilshunoslikda zoonimlar ikki asosiy yo'nalishda o'rganiladi:

□ biologik nomenklatura: hayvonlarning ilmiy nomlanishi. Bu sohada zoonimlar ilmiy-tashkiliy tartibda tuzilgan bo'ladi.

□ madaniy va folklor konteksti: zoonimlar xalq og'zaki ijodida, afsonalarda yoki kundalik nutqda ma'lum hayvonlarni ifoda qilish uchun ishlatiladi.

Zoonimlar nafaqat lingvistik ahamiyatga ega, balki ular xalqning madaniyati, e'tiqodlari va hayot tarzi haqida ko'p ma'lumot beradi. Fransuzcha meteorologiyaga oid zoonim komplementli frazeologik birliklarni tahlil qilar ekanmiz, ularning lingvokulturologik va semantik xususiyatlariga to'xtalmasdan ilojimiz yuq. Bunda fransuz xalqining o'ziga xos madaniyati va mentalitetini tahliliga harakat qildik [Ряденка.Н.К. Зоономика, 1985].

Tahlil uchun yig'ilgan misollarda meteorologiyaga oid zoonim komplementli frazeologik birliklarda asosan komponent sifatida uy hayvonlaridan it, o'rdak, sigir, cho'chqa, tovuq, qo'y, mushuk kabilar, yavvoyi hayvonlardan esa bo'ri, tipratikan, ayiq, qo'rbaqa, qarg'a, kabilar kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Bunday birliklar orasida eng mashhurlaridan biri bu, albatta, yomg'ir, qor va kuchli sovuq bo'lgan vaqtga nisbatan qo'llaniladigan "temps de chien" iborasidir. Fransuz tilida ushbu ibora o'rnida ba'zan "il fait un temps à ne pas mettre un chien dehors" iborasi ham qo'llaniladi. Dastavval, fransuz xalqida ham uzoq vaqt davomida itlar uylarga kiritilmasdan tashqarida qoldirilgan. Bu ibora usha davr fransuz madaniyati hosilasi sifatida vujudga kelgan. "Animal de compagnie" tushunchasi yaqin yillarda vujudga kelgan tushuncha hisoblanadi. Shu sababdan, hozirgi kundagi fransuz madaniyatida itlarga nisbatan bo'lgan munosabat o'zgardi. Avvalgi munosabatdan esa ushbu ibora esdalik bo'lib qolgan.

Fransuz tilida "Froid de canard" iborasi ham ko'p qo'llaniluvchi iboralardan biri hisoblanadi. Bu ibora juda sovuq ob-havo nisbatgan gapirilganda qo'llaniladi. Odatda ushbu ibora qishki sovuq kunlarda ishlatiladi. Yana bir qancha uy hayvonlari komponent sifatida kelgan frazeologik birliklarni keltirib o'tsak:

• "Il fait un temps de brebis tondu" – juda salqin yoki sovuq, lekin shamolsiz kunlarga nisbatan ishlatiladi;

• "Un vent à décorner les bœufs" – juda kuchli shamolni ifodalaydi;

• "La neige est comme un manteau de chat" – yumshoq va sekin qor yog'ayotganini tasvirlash uchun ishlatiladi.

• "Être trempé comme une soupe de canard" – boshidan-to oyoqgacha suv bo'lgan holatni tasvirlaydi, odatda kuchli yomg'ir oqibatida.

• "Temps de lièvre" – bu ibora bahor yoki kuzgi havoni, odatda yumshoq va salqin ob-havoni tasvirlash uchun ishlatiladi.

• "Il pleut comme vache qui pisse" – bu ibora juda kuchli yomg'irni ifodalaydi, ya'ni yomg'irning kuchlilikini majoziy tarzda tasvirlaydi.

Komponent sifatida yovvoyi hayvonlar ishtirokidagi iboralar ham yetarlichadir. Bular orasida bo'ri obrazi mashhurroqdir. Masalan, juda qattiq sovuq kunlarga nisbatan fransuz xalqi "Faire un froid de loup" iborasini

¹ Muqumov Toshqobil Bozor o'g'li, SamDChTI tayanch doktoranti

ishlatishadi. Bundan tashqari fransuz tilida “Temps de loup” iborasi ham mavjud bo‘lib, bu ibora odatda vahimali, sovuq va shamolli havoni ifodalaydi.

Yavvoyi hayvonlar bilan keladigan frazeologik birliklarga quyidagilarni misol qilib kiltirish mumkin:

- “La grenouille monte l’échelle” – bu ibora havo isib, quyoshli bo‘lishini belgilaydi.

- “Être dans la brume comme un hérisson” – biror narsani yaxshi tushunmaslik yoki qorong‘i kunlarni tasvirlashda ishlatiladi.

- “Il pleut des grenouilles” – juda g‘ayrioddiy va g‘amgin ob-havo sharoitini ifodalash uchun ishlatiladi, ammo bu ibora kamroq ishlatiladi va xalq og‘zaki ijodiga xosdir.

- “Un vent à faire voler les moineaux” – juda kuchli shamol haqida gapirilganda ishlatiladi.

Misollardan ko‘rish mumkinki, ko‘pchilik misollar yomon ob-havoga nisbatan qo‘llanilgan. Fransuz tilidagi bu iboralar fransuz xalqi madaniy va estetik merosining muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi. Ular aksar hollarda o‘zida chuqur ramziy yoki metaforik ma’nolar saqlashi bilan xarakterlanadi. Bu kabi iboralar orqali qadimda va hozirgi kunda fransuz ijtimoiy hayotida qaysi hayvonlarning o‘z o‘rni mavjudligi bo‘yicha tasavvur paydo qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Шк. Языки рус. Культуры; 1996. – 284 с.
- [2]. Proverbes français: 1066 proverbes célèbres. <https://citation-proverbe-francais>
- [3]. Ergashev M., Niyozov I. Proverbes et Dictons d'Ouzbékistan, Paris: Editions Georama, 2006. - 96 p.
- [4]. <https://www.lalanguefrancaise.com/>
- [5]. Калинин В.М. Литературная ономастика, или Поэтика онима. Донецк : ДНУ, 2002. -39 с.
- [6]. Ўзбек халқ мақоллари. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -512 б.
- [7]. Шомақсудов Ш., Шарахмедов Ш. Маънолар маҳзани. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. — 477 б.
- [8]. Mirsanov, G. (2024). KOGNITIV LINGVISTIKA VA MATEMATIKA MUNOSABATLARI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 322-324.
- [9]. Esirgapov, M., & Abduxakimova, U. (2024). Yevropa, amerika va avstraliya xalqlari tili va adabiyoti. Synapses: Insights across the disciplines, 1(3), 138-142.